

Dunyoni, unga turli nigohlar bilan qarab anglash mumkin

Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari



O'ZBEKISTON GUMANITAR
JURNALI

№4(112)

2025

JAMOATCHILIK TAHRIR
KENGASHI

Akmal SAIDOV
Rais

Tanzila NARBAYEVA

Firdavs ABDUXOLIQOV

Kamola AKILOVA

Aleksandr JUMAYEV

Aleksey USTIMENKO

Nigina SHERMUHAMEDOVA

TAHRIR HAY'ATI

Nigina RAXIMOVA
Bosh muharrir

Evgeniy ABDULLAYEV

Qalandar ABDURAHMANOV

Viktoriya ALEKSEYEVA

Mansur BEKMURODOV

Karine DJAVAKOVA

Valeriy FEDOROV

Akbar HAKIMOV

Abdugani HOLBEKOV

Nodira LATIPOVA

Ildor MUXTOROV

Dildora AXMEDOVA
Mas'ul kotib

Baxrom MIRKASIMOV

Mukarram NURMATOVA

Shafolat NURULLAYEVA

Rustam SULAYMONOV

Shoxida SODIQOVA

Aziz TATIBOYEV

Dmitriy TROSTYANSKIY

Zarema SHAUKENOVA

ILMIY-AXBOROT NASHRI
Toshkent

The World is Cognizable, if Seen through Different Eyes

Public opinion. Human rights



UZBEKISTAN'S HUMANITARIAN
JOURNAL

№4(112)

2025

EDITORIAL PUBLIC COUNCIL:

Akmal SAIDOV

Chairman

Tanzila NARBAEVA

Firdavs ABDUKHALIKOV

Kamola AKILOVA

Alexander DJUMAEV

Alexey USTIMENKO

Nigina SHERMUHAMEDOVA

EDITORIAL BOARD:

Nigina RAKHIMOVA

Editor-in-Chief

Evgeniy ABDULLAEV

Kalandar ABDURAKHMANOV

Viktoriya ALEKSEEVA

Mansur BEKMURODOV

Karine DJAVAKOVA

Valeriy FEDOROV

Akbar HAKIMOV

Abdughani KHOLBEKOV

Nodira LATIPOVA

Ildar MUKHTAROV

Dildora AKHMEDOVA

Executive Secretary

Bakhrom MIRKASIMOV

Mukarram NURMATOVA

Shafolat NURULLAYEVA

Rustam SULEIMANOV

Shoxida SODIQOVA

Aziz TATIBAEV

Dmitriy TROSTYANSKIY

Zarema SHAUKENOVA

Мир познается, когда на него смотрят разными глазами

Общественное мнение. Права человека



УЗБЕКИСТАНСКИЙ ГУМАНИТАРНЫЙ
ЖУРНАЛ

№4(112)

2025

ОБЩЕСТВЕННЫЙ
РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Акмаль САИДОВ

Председатель

Танзила НАРБАЕВА

Фирдавс АБДУХАЛИКОВ

Камола АКИЛОВА

Александр ДЖУМАЕВ

Алексей УСТИМЕНКО

Нигина ШЕРМУХАМЕДОВА

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Нигина РАХИМОВА

главный редактор

Евгений АБДУЛЛАЕВ

Каландар АБДУРАХМАНОВ

Виктория АЛЕКСЕЕВА

Мансур БЕКМУРОДОВ

Каринэ ДЖАВАКОВА

Нодира ЛАТИПОВА

Ильдар МУХТАРОВ

Дилдора АХМЕДОВА

ответственный секретарь

Бахром МИРКАСИМОВ

Мукаррам НУРМАТОВА

Шафоат НУРУЛЛАЕВА

Рустам СУЛЕЙМАНОВ

Шохида САДЫКОВА

Азиз ТАТЫБАЕВ

Дмитрий ТРОСТЯНСКИЙ

Валерий ФЕДОРОВ

Акбар ХАКИМОВ

Абдугани ХОЛБЕКОВ

Зарема ШАУКЕНОВА

НАУЧНО-ИНФОРМАЦИОННОЕ ИЗДАНИЕ
Ташкент

MUNDARIJA
 تەرجىمە
 TAHRIR HAY'ATIDAN
 Inson huquqlari, ijtimoiy ishonch
 va jamoatchilik fikri dinamikasi
 /

BUGUNGI O'ZBEKISTON
Nigina Raximova
 2025 yil ijtimoiy kutilmalari
 tuzilmasida O'zbekistonning
 asosiy tashabbuslari ahamiyati

Nodira Muxammadiyeva
 Nogiron bolalarni har
 tomonlama qo'llab-quvvatlashda
 ijtimoiy xodimning o'rni va roli

IJTIMOIIY TADQIQOTLAR
Viktoriya Alekseyeva
Manzura Raximova
 Aholining ekologik ongi va
 xulq-atvor niyatlari: nazariy va
 uslubiy tahlil

Shahlo Ahrorova
 Ijtimoiy-ma'naviy muhit va
 ijtimoiy munosabatlar

Nilufar Kamalova
 Platforma mehnati
 tushunchasining sotsiologik-
 nazariy asoslari
 /

SOTSIOIJTIMOIIY TADQIQOTLAR
 METODOLOGIYASI
Sevara Ishmuratova
 Gender zo'ravonlik
 muammosining nazariy-
 metodologik asoslari
 /

FALSAFA VA MADANIYAT DAVR
 TALQINIDA

CONTENTS
 تەرجىمە
 FROM THE EDITORIAL BOARD
 The dynamics of human rights,
 social trust and republic opinion
 /

UZBEKISTAN TODAY
Nigina Rakhimova
 The importance of Uzbekistan's
 key initiatives in 2025 in the
 structure of public expectations

Nodira Mukhammadieva
 The place and role of a social
 worker in the comprehensive
 care of children with disabilities

SOCIAL STUDIES
Viktoria Alekseeva
Manzura Rakhimova
 Ecological consciousness and
 behavioral intentions of the
 population: a theoretical and
 methodological analysis

Shakhlo Akhrorova
 Social and spiritual environment
 and social relations
 /

Nilufar Kamalova
 Sociological-theoretical
 foundations of the concept of
 platform labor

METHODOLOGY OF SOCIAL AND
 HUMANITARIAN STUDIES
Sevara Ishmuratova
 The oretical and methodological
 foundations of the problem of
 gender-based violence

PHILOSOPHY AND CULTURE IN
 TIME CONTEXT

СОДЕРЖАНИЕ
 تەرجىمە
 ОТ РЕДКОЛЛЕГИИ
 Права человека, социальное
 доверие и динамика
 общественного мнения
 /

УЗБЕКИСТАН СЕГОДНЯ
Нигина Рахимова
 Значение ключевых инициатив
 Узбекистана в 2025 году в
 структуре общественных
 ожиданий
 /

Ноди́ра Мухаммадиева
 Место и роль социального
 работника в комплексном
 сопровождении детей с
 инвалидностью
 /

СОЦИАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Виктория Алексеева
Манзура Рахимова
 Экологическое сознание и
 поведенческие намерения
 населения: теоретико-
 методологический анализ
 /

Шахло Ахророва
 Социально-духовная среда и
 социальные отношения

Нилуфар Камалова
 Социолого-теоретические
 основы понятия
 платформенного труда

МЕТОДОЛГИЯ СОЦИОГУМАНИ-
 ТАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
Севара Ишмуратова
 Теоретико-методологические
 основы проблемы гендерного
 насилия

ФИЛОСОФИЯ И КУЛЬТУРА В КОН-
 ТЕКСТЕ ВРЕМЕНИ

Abdugʻaffor Tolipov Voyaga yetmaganlarning hatti-harakatlarida deviant xulq-atvorning namoyon boʻlishi / HUQUQIY MASALALAR: NAZARIYA VA AMALIYOT Gʻulom Xolmurodov Yangi Oʻzbekiston oilalarida xotin – qizlarni zoʻravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari / OʻZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI Furkat Xodjayev Davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga kadrlarni saralash va tanlash masalalari (Germaniya tajribasi) / Sevara Jabborova Xitoyning biosiyosiy strategiyasi: sogʻliqni saqlash tizimi orqali jamiyatni boshqarish mexanizmlari Hilola Mustapova, Munavvar Gulboyeva “Global janub nodavlat va notijorat platformasi” Ozarbayjon tashqi siyosatida “yumshoq kuch” omili sifatida / Barno Suyunova Yapon xalqaro munosabatlar nazariyasining rivojlanishi: transformatsiya va asosiy yoʻnalishlar / OʻZBEKISTONNING MADANIY MEROSI Gulnoza Sharafova Oʻzbekiston kino sanʼati ustalarining oʻlmas merosi /	Abdugaffor Tolipov The manifestation of deviant behavior in the actions of minors LEGAL THEORY AND PRACTICE Gulom Kholmurodov Legal foundations for the protection of women from violence in families of the New Uzbekistan UZBEKISTAN AND THE INTERNATIONAL COMMUNITY Furkat Khodjaev Recruitment issues for public civil service positions (German experience) Sevara Jabborova China’s biopolitical strategy: mechanisms for managing society through the healthcare system / Khilola Mustapova, Munavvar Gulboeva “Global south non-state and non-profit platform” as a factor of “soft power” in the foreign policy of Azerbaijan Barno Suyunova The development of japanese theory of international relations: transformation and main directions CULTURAL HERITAGE OF UZBEKISTAN Gulnoza Sharafova The immortal legacy of the Uzbek cinema masters	Абдугаффор Толипов Проявление девиантного поведения в поведении несовершеннолетних ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА Гулом Холмуродов Правовые основы защиты женщин от насилия в семьях Нового Узбекистана УЗБЕКИСТАН И МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО Фуркат Ходжаев Вопросы подбора персонала на должности государственной гражданской службы (опыт Германии) Севара Жабборова Биополитическая стратегия Китая: механизмы управления обществом через систему здравоохранения Хилола Мустапова, Мунаввар Гулбоева «Негосударственная и некоммерческая платформа Глобальный юг» как фактор «мягкой силы» во внешней политике Азербайджана Барно Суюнова Развитие японской теории международных отношений: трансформация и основные направления КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА Гульноза Шарафова Бессмертное наследие мастеров киноискусства Узбекистана
---	---	--

AXBOROTGA EGA BO'LGAN – DUNYOGA EGALIK QILADI Nodir Ahmedov O'zbekistonda axborot kontentini monitoringi va tahlili	INFORMATION THE KEY TO THE WORLD Nodir Akhmedov Monitoring and analysis of information content in Uzbekistan	КТО ВЛАДЕЕТ ИНФОРМАЦИЕЙ, ТОТ ВЛАДЕЕТ МИРОМ Нодир Ахмедов Мониторинг и анализ информационного контента в Узбекистане /
Shaxnoza Raximova Raqamli transformatsiya sharoitida axborot-kutubxona muassasalarining institutsional rivojlanishi /	Shakhnoza Rakhimova Institutional development of information and library institutions in the context of digital transformation	Шахноза Рахимова Институциональное развитие информационно-библиотечных учреждений в условиях цифровой трансформации
O'TMISHGA BIR NAZAR (O'ZBEKISTON SIYOSIY TARIXINING SOTSIOLOGIYASI) Go'zal Kadirova Toshkent – buyuk allomalar shahri /	LOOKING IN THE PAST (SOCIOLOGY OF POLITICAL HISTORY OF UZBEKISTAN) Guzal Kadirova Tashkent – city of great scientists	ВГЛЯДЫВАЯСЬ В ПРОШЛОЕ (СОЦИОЛОГИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА) Гузал Кадилова Ташкент – город великих ученых
“IJTIMOIY FIKR” RESPUBLIKA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MARKAZI HISOBOTLARIDAN O'zbekistonda korrupsiya haqida fuqarolar (jamoatchilik fikri so'rov natijalariga ko'ra) /	FROM THE REPORTS OF THE REPUBLICAN CENTER FOR THE STUDY OF PUBLIC OPINION “IJTIMOIY FIKR” Citizens on corruption in Uzbekistan (according to the results of a public opinion poll)	ИЗ ОТЧЕТОВ РЕСПУБЛИКАНСКО- ГО ЦЕНТРА ИЗУЧЕНИЯ ОБЩЕ- СТВЕННОГО МНЕНИЯ «ИЖТИМО- ИЙ ФИКР» Граждане о коррупции в Узбекистане (по результатам опроса общественного мнения)
DALILLAR. VOQEALAR. SHARHLAR O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari: seminarining tahliliy sharhi /	FACTS. EVENTS. COMMENTS Key directions of social development in Uzbekistan: analytical review of the seminar	СОБЫТИЯ. ФАКТЫ. КОММЕНТАРИИ Ключевые направления общественного развития Узбекистана: аналитический обзор семинара /
Akmal Saidov O'zbekiston – jahon parlament diplomatiyasining yetakchisi: Parlamentlararo ittifoq 150-Assambleyasi yakunlari /	Akmal Saidov Uzbekistan is the leader of the world parliamentary diplomacy: results of the 150th Assembly of the Interparliamentary Union	Акмаль Саидов Узбекистан – лидер мировой парламентской дипломатии: итоги 150-й Ассамблеи Межпарламентского союза
MUALLIFLARIMIZ /	OUR AUTHORS /	НАШИ АВТОРЫ /
JURNALNING 2025 YILDAGI MUNDARIJASI /	THE CONTENTS OF THE MAGAZINE FOR 2025 /	СОДЕРЖАНИЕ ЖУРНАЛА ЗА 2025 ГОД /



Hilola Mustapova
Munavvar Gulboyeva

“GLOBAL JANUB NODAVLAT VA NOTIJORAT PLATFORMASI” OZARBAYJON TASHQI SIYOSATIDA “YUMSHOQ KUCH” OMILI SIFATIDA

XI asrda xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarning qudratini belgilovchi omillar tobora ko'proq turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, hudud, iqtisodiyot, tabiiy resurs baza, harbiy salohiyat kabi omillar davlatlarning xalqaro maydondagi mavqeyini belgilovchi eng muhim elementlardir. Shu bilan birgalikda, so'nggi yillarda davlatlar tomonidan yumshoq kuch (soft power) konsepsiyasiga asoslangan holda tashqi siyosatni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Amerikalik siyosatshunos Jozef Nay tomonidan ishlab chiqilgan bu konsepsiya davlatlarning o'z manfaatlarini boshqa davlatlarga majburlamasdan, balki jozibadorlik, madaniyat, qadriyatlar hamda diplomatiya orqali ilgari surish imkoniyatini tadqim etadi. Shu boisdan, Ozarbayjon Respublikasi ham o'z tashqi siyosatida an'anaviy vositalar bilan bir qatorda, yumshoq kuch omilini faol ravishda qo'llab kelmoqda. Ayniqsa, 2020 yildagi Ikkinchi Qorabog' urushidan keyingi davrda mamlakat o'zining mintaqaviy va global nufuzini oshirish, G'arb va Sharq o'rtasidagi ko'priklar vazifasini o'tash, rivojlanayotgan davlatlar bilan siyosiy va gumanitar aloqalarni kuchaytirish va mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ana shunday tashabbuslardan biri 2023 yilda Prezident Ilhom Aliyev tomonidan asos solingan “Global Janub nodavlat va notijorat platformasi” (keyingi o'rinlarda – Global Janub NNT platformasi) bo'lib, u Ozarbayjon tashqi siyosatida yumshoq kuch elementlarini amalda namoyon qiluvchi muhim vositaga aylanmoqda.

Uzoq yillar davomida Armaniston bilan bog'liq ziddiyatlardan keyin Ozarbayjon o'z hududiy yaxlitligini tiklashga erishdi va bu orqali xalqaro maydonda ishonchni mustahkamladi. Xususan, 2025 yilda Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida tinchlik bitimining imzolanishi mintaqadagi muhim tarixiy voqea bo'ldi. Ma'lumot o'rnida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari o'zaro manfaatli hamkorlikning yuqori bosqichlariga o'tmoqda. Albatta, bu tinchlik bitimining imzolanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamnuniyat bilan olqishlandi va Janubiy Kavkaz mintaqasida barqarorlik va hamkorlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam sifatida e'tirof etildi¹. Shu bilan birgalikda, Tog'li



Qorabog'dagi harbiy g'alaba Ozarbayjonning "qattiq kuch" (hard power) siyosatini ko'rsatdi. Endilikda esa diplomatiya, fuqarolik jamiyati, xalqaro tashabbuslar orqali Ozarbayjon o'zini barqarorlik va rivojlanishga hissa qo'shuvchi davlat sifatida tanitishga intilmoqda. Jumladan, "yumshoq kuch" siyosati orqali Ozarbayjon xalqaro maydonda o'zini nafaqat energetika va xavfsizlik yo'nalishlarida, balki madaniyat, ta'lim, gumanitar aloqalar orqali ham faol sub'yekt sifatida ko'rsatmoqda. Bu borada Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tashabbuslari muhim o'rin tutadi.

"Global Janubiy nodavlat va notijorat platformasi"ning shakllanishi

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferentsiyasi (keyingi o'rinlarda COP, inglizchada – Conference of the Parties) har yili o'tkaziladi. 2024 yil noyabr oyida bo'lib o'tgan COP29 ga Ozarbayjon mezbonlik qildi. COP yer yuzidagi deyarli 198 ta mamlakatlarni birlashtirgan iqlim o'zgarishi bo'yicha dunyodagi yagona ko'p tomonlama qaror qabul qiluvchi forum hisoblanadi². Boku shahrida bo'lib o'tgan COP29 sammitida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev tomonidan nafaqat iqlim muammolari, balki rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish zarurligi ham ta'kidlab o'tildi. Jumladan, u shunday dedi³: "...COP29 prezidenti sifatida Ozarbayjon rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, "Global Janub" va "Global Shimol" o'rtasida umumiy tushunishni topish uchun qo'ldan kelganini qiladi. Ozarbayjon 120 ta davlatning yakdil qarori bilan to'rt yil davomida Birlashgan Millatlar Tashkilotidan keyingi ikkinchi xalqaro tashkilot bo'lgan Qo'shilmaslik Harakatiga muvaffaqiyatli raislik qildi." Albatta, Ilhom Aliyev o'z nutqida bejizga "Global Janub" atamasini tilga olmadi, bu global tashabbusga bevosita ishora edi. Ushbu 2024 yil noyabr oyidagi COP29 sammitida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tomonidan bildirilgan ushbu siyosiy pozitsiya bir yil davomida rasmiy fuqarolik platformasining shakllanishiga olib keldi. Bu g'oya dunyo davlatlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini tashkil etuvchi Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniya mamlakatlari vakillari tomonidan darhol ijobiy qabul qilindi. Joriy 2025 yil aprel oyida Global Janubiy NNT platformasining rasmiy

taqdimoti o'tkazildi. Bu bosqichda 140 ga yaqin davlatdan 1000 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari va faollari tegishli qo'shma deklaratsiyani imzolash uchun birlashdilar. Prezident Ilhom Aliyev ta'kidlaganidek, Ozarbayjon o'zining ko'p vektorli tashqi siyosati bilan tanilgan hamda 2019 yildan 2023 yilgacha 120 ta davlatni birlashtirgan "Qo'shilmaslik Harakati"ga (QHH) raislik qildi. Unga ko'ra, raislik yillarida Ozarbayjon rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini qat'iy himoya qilgan, turli iqtisodiy imkoniyatlarga ega mamlakatlarga, xususan COVID-19 pandemiyasi vaqtida ularga insonparvarlik va moliyaviy yordam ko'rsatgan hamda global tashabbuslarni ilgari surgan. Uning fikricha, Ozarbayjonning o'zaro ishonch va tushunish muhitini qo'llab-quvvatlash orqali "Global Janub" va "Global Shimol" o'rtasida faol muloqotni kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlari va ularning muvaffaqiyatli natijalari COP29 doirasida erishilgan "Boku yutug'i" bo'ldi. Darhaqiqat, Ozarbayjon mezbonlik qilgan COP29 forumida 197 ta mamlakatdan 80 mingga yaqin ishtirokchi ishtirok etdi va bu Boku uchun faxrlanishga arziydigan tarixiy voqeadir. Prezidentning ta'kidlashicha, ba'zi G'arb davlatlarining COP29ni boykot qilishga urinishlariga qaramay butun dunyo Bokuga to'plandi⁴.

"Global Janub" NNT platformasining maqsad va vazifalari

Prezident Ilhom Aliyev ta'kidlaganidek, "Global Janub" nodavlat notijorat tashkilotlari platformasi xalqlar ovozini kuchaytirish, ularning pozitsiyasini xalqaro hamjamiyatga yetkazish, huquqlarini himoya qilish va ta'minlashga katta hissa qo'shadi⁵. Shuningdek, Ozarbayjon mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga amal qiladi, siyosiy tizimlar, xalqlarning madaniy, etnik va diniy farqlarini hurmat qiladi, dinlararo, sivilizatsiyalar va madaniyatlararo muloqotni doimo va har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

2025 yil 28 aprel kuni Boku Kongress markazida Global Janub nodavlat notijorat tashkilotlari platformasining ta'sis konferentsiyasi ochildi. Tadbir tashkilotchilarining so'zlariga ko'ra, u dunyo aholisining qariyb 80 foizini tashkil etuvchi 116 ta davlatdan fuqarolik jamiyati vakillarini birlashtirdi. Ta'sis konferentsiyasi "Birdamlik



harakati: Yangi va adolatli dunyo uchun global janubdagi nodavlat notijorat tashkilotlarini kuchaytirish” shiori ostida o‘tkazildi. Ikki kun davomida 116 ta davlat vakillari G‘arb davlatlariga qarama-qarshilikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini muhokama qildi, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotida (BMT) chiqishlar uchun yagona pozitsiyani ishlab chiqdi, shuningdek, qashshoqlik, iqlim o‘zgarishi oqibatlari, raqamli tafovut va savdo tengsizligiga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqishni maqsad qildi. Ozarbayjon nodavlat notijorat tashkilotlari milliy forumi vakili Ramil Iskenderlining ta’kidlashicha, “Global janubiy nodavlat tashkilotlar platformasi”ni yaratish vaqti keldi. Bizning maqsadimiz – dunyo hamjamiyatiga o‘z ovozimizni yetkazish. Birgalikda biz o‘z dunyomizni yanada adolatliroq qilishimiz mumkin”, – dedi u. Shuningdek, platforma ishtirokchilari bundan 70 yil avval Indoneziyada qabul qilingan tarixiy “Bandung tamoyillari”ga alohida e’tibor qaratish niyatida. 1955 yilda Bandungda bo‘lib o‘tgan Osiyo-Afrika konferensiyasi “Qo‘shilmaslik harakati”ga asos solinishi yo‘lidagi birinchi muhim qadam hisoblanadi. Boku forumi materiallarida ta’kidlanganidek, u yerda shakllantirilgan tamoyillar – suverenitetni hurmat qilish, xalqlar tengligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l qo‘ymaslik – Global Janub mamlakatlari tomonidan yaratiladigan yangi global arxitekturaning asosiga aylanishi kerak. Shu bilan birgalikda, platforma asosiy muammolardan biri bo‘lgan neokolonializm siyosatiga qarshi kurashishni maqsad qiladi. “...Ozarbayjon siyosati hamisha o‘zaro hurmat va hamkorlikda rivojlanish tamoyillariga asoslangan. Afsuski, Global Janub mamlakatlari duch keladigan ko‘plab asosiy muammolar ba’zi G‘arb davlatlari tomonidan olib borilayotgan davom etayotgan neokolonial siyosatning natijasidir. Biz mustamlakachilikning barcha shakl va ko‘rinishlarini qat’iyan rad etamiz va xalqlarning ulkan fojialarga, qullikka va azob-uqubatlarga olib keladigan bunday amaliyotlarini mutlaqo qabul qilib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz”, – dedi Ozarbayjon rahbari⁶. Ta’kidlash joizki, 2024 yil iyul oyida Bokuda Fransiya mustamlakachiligidan jabr ko‘rgan Korsika, Melaneziya, Polineziya, Karib dengizi va Antil

orollari guruhi mustaqilligi uchun 15 ta siyosiy partiya va harakatlarning qurultoyi ochildi. Qurultoy Fransiyaning dengiz o‘rtasidagi hududlarida “fransuz mustamlakachiligini yengish” va mustaqillik uchun yanada uyushgan kurash olib borish uchun siyosiy harakatlarning yagona platformasini yaratish maqsadida o‘tkazilgan edi⁷. Mutaxassislarining fikricha, Ozarbayjon uchinchi dunyo davlatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashqi siyosatini faol rivojlantirmoqda. Siyosatshunos Sergey Markovning ta’kidlashicha, Ozarbayjonning fransuz imperializmi va neokolonializmiga qarshi kurashayotgan xalqlarga ko‘rsatayotgan yordami, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ozarbayjon Gollandiya kabi boshqa G‘arb davlatlarining neokolonial yondashuvlariga qarshi bo‘lgan davlatlarni ham qo‘llab-quvvatlamogda⁸. Natijada Ozarbayjon kengroq xalqaro vakillikni shakllantirish bilan birga, Ozarbayjon “yumshoq kuchi”ning Global Janub mamlakatlaridagi ta’siri o‘sishiga va bu davlatlar bilan o‘zaro aloqalarini mustahkamlashga erishmoqda.

Mazkur platforma xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Xususan, BMT Ozarbayjonning global janubiy fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashini olqishlaydi. “Azernews” nashrining xabar berishicha, 2025 yil 29 may kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Janub-Janub hamkorligi boshqarmasi direktori Dima Al-Xatib Nyu-Yorkda Ozarbayjon Respublikasi nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat qo‘llab-quvvatlash agentligi delegatsiyasi bilan uchrashdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, BMTning Janub-Janub hamkorlik bo‘limi Global Janub NNT platformasi bilan yaqin hamkorlik qilishdan manfaatdor⁹.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ozarbayjon tomonidan ilgari surilayotgan Global Janubiy NNT platformasi tashabbusi so‘nggi yillarda mamlakat tashqi siyosatida “yumshoq kuch” (soft power) vositalarining kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu platforma Ozarbayjonning nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro doirada ham diplomatik rolini kuchaytirishi, ijtimoiy-iqtisodiy adolat, iqlim o‘zgarishi, fuqarolik jamiyati va barqaror taraqqiyot kabi global muammolarga institutsional yondashuv asosida yechim berish yo‘lidagi strategik qadami sifatida



talqin etilishi mumkin. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan bildirilgan ijobiy baholar, bu tashabbusning xalqaro maydondagi dolzarbligi va huquqiyligini ta'minlashda g'oyat ahamiyatlidir. Qolaversa, platforma Ozarbayjon tashqi siyosatining yangi post-Qorabog' bosqichida – geosiyosiy pozitsiyasini mustahkamlash, yangi Global Janub-Global Shimol integratsiyasini qo'llab-quvvatlash

hamda global janub davlatlari bilan strategik hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Muxtasar qilib aytganda, "Global Janub" platformasi – bu faqat diplomatik tashabbus emas, balki Ozarbayjonning o'z tashqi siyosatida qadriyat va ishonch asosidagi o'zining yangi xalqaro imijini shakllantirishga qaratilgan "yumshoq kuch" strategiyasining yuksak ifodasidir.

¹ O'zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari telefon orqali muloqot qildilar. <https://president.uz/oz/lists/view/8374>. (09.08.2025)

² UN Climate Change Conferences. <https://www.un.org/en/climatechange/un-climate-conferences>. (10. 04. 2024.)

³ Baku hosted opening ceremony of World Leaders Climate Action Summit at COP29. <https://president.az/en/articles/view/67281>. (12. 11. 2024.)

⁴ Baku hosted opening ceremony of World Leaders Climate Action Summit at COP29. <https://president.az/en/articles/view/67281>. (11. 12. 2024.)

⁵ Участникам Учредительной конференции Платформы НПО Глобального Юга. <https://president.az/ru/articles/view/68668>. (04. 28. 2025.)

⁶ Гегемонии Запада конец: Баку объединяет 80% населения мира. <https://news.ru/cis/gegemonii-zapada-konec-baku-obedinyaet-80-naseleniya-mira>. (28. 04. 2025.)

⁷ Гасымов Н. (18 июля 2024 г.). Баку собрал противников французского колониализма. <https://www.vedomosti.ru/politics/articles/2024/07/18>. (18. 07. 2024.)

⁸ Гегемонии Запада конец: Баку объединяет 80% населения мира. <https://news.ru/cis/gegemonii-zapada-konec-baku-obedinyaet-80-naseleniya-mira>. (28. 04. 2025.)

⁹ Abdul N. UN praises Azerbaijan's support for Global South Civil Society. <https://www.azernews.az/business/242571>. (30. 05. 2025.)

REZYUME

Hilola MUSTAPOVA; Munavvar GULBOYEVA

“GLOBAL JANUB NODAVLAT VA NOTIJORAT PLATFORMASI” OZARBAYJON TASHQI SIYOSATIDA “YUMSHOQ KUCH” OMILI SIFATIDA

Ushbu maqolada Tog'li Qorabog' urushidan keyingi davrdagi Ozarbayjon tashqi siyosatidagi muhim o'zgarishlar, xususan “yumshoq kuch” omilining ortib borayotgan roli o'rganiladi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tashabbusi bilan ilgari surilayotgan “Global Janub nodavlat va notijorat platformasi” misolida Ozarbayjonning xalqaro maydondagi mavqeyi, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosiy tashabbuslari yoritiladi. Maqolada ushbu platformaning siyosiy, geoiqtisodiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, u orqali Ozarbayjonning global janub davlatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikni yo'lga qo'yish strategiyasi tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, Global Janub platformasi Ozarbayjon tashqi siyosatining yangi bosqichga o'tganini va mintaqaviy geosiyosatda yetakchilikka intilayotganini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Ozarbayjon tashqi siyosati, “yumshoq kuch”, Global Janub platformasi, xalqaro hamkorlik, diplomatiya, fuqarolik jamiyati.



SUMMARY

Khilola MUSTAPOVA; Munavvar GULBOEVA

“GLOBAL SOUTH NON-STATE AND NON-PROFIT PLATFORM” AS A FACTOR OF “SOFT POWER” IN THE FOREIGN POLICY OF AZERBAIJAN

This article examines the aftermath of the Nagorno-Karabakh War and the important changes in Azerbaijan's foreign policy during this period, in particular the growing role of the “soft power” factor. The example of the “Global South Non-State and Non-Profit Platform,” initiated by the President of the Republic of Azerbaijan Ilham Aliyev, highlights Azerbaijan's position in the international arena and its foreign policy initiatives aimed at strengthening relations with developing countries. The article analyzes the political, geoeconomic, and cultural significance of this platform, as well as Azerbaijan's strategy for establishing multifaceted cooperation with the countries of the Global South. The findings indicate that the Global South platform reflects a new stage in Azerbaijan's foreign policy and its aspiration for leadership in regional geopolitics.

Keywords: Azerbaijani foreign policy, soft power, Global South platform, international cooperation, diplomacy, civil society.

РЕЗЮМЕ

Хилола МУСТАПОВА; Мунаввар ГУЛБОЕВА

«НЕГОСУДАРСТВЕННАЯ И НЕКОММЕРЧЕСКАЯ ПЛАТФОРМА ГЛОБАЛЬНЫЙ ЮГ» КАК ФАКТОР «МЯГКОЙ СИЛЫ» ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ АЗЕРБАЙДЖАНА

В статье рассматриваются последствия войны в Нагорном Карабахе и важные изменения во внешней политике Азербайджана в этот период, в частности возросшая роль фактора «мягкой силы». На примере инициированной Президентом Азербайджанской Республики Ильхамом Алиевым «Негосударственной и некоммерческой платформы “Глобальный Юг”» освещаются позиции Азербайджана на международной арене и его внешнеполитические инициативы, направленные на укрепление отношений с развивающимися странами. В статье анализируются политическое, геэкономическое и культурное значение данной платформы, а также стратегия Азербайджана по налаживанию многостороннего сотрудничества со странами Глобального Юга. Согласно результатам анализа, платформа «Глобальный Юг» отражает переход внешней политики Азербайджана на новый этап и его стремление к лидерству в региональной геополитике.

Ключевые слова: внешняя политика Азербайджана, мягкая сила, платформа «Глобальный Юг», международное сотрудничество, дипломатия, гражданское общество.

